Soliyeva Mubinabonu Zokirjon qizi

Andijon davlat universiteti, magistr

Annotatsiya: Mazkur maqolada fizika fanini o'qitishda STERAM (Science, Technology, Engineering, Research, Art, Mathematics) integratsiyasining nazariy va didaktik asoslari tahlil qilingan. Tadqiqotda kasb-hunar maktablarida fanlararo integratsiyani rivojlantirish, loyiha asosida o'qitish va innovatsion texnologiyalarni joriy etish orqali o'quvchilarning ilmiy, ijodiy hamda kasbiy tafakkurini shakllantirish yo'llari yoritilgan. STERAM yondashuvi yordamida o'quv jarayonida o'quvchilarning muammoli vaziyatlarni hal etish, ilmiy tadqiqot olib borish, eksperiment o'tkazish va tahliliy faoliyatga jalb etish imkoniyatlari asoslab berilgan. Shuningdek, o'qitish samaradorligini oshirishda raqamli laboratoriyalar, modellashirish, reflektiv tahlil, loyiha va muammoli o'qitish kabi innovatsion metodlarning o'rni ko'rsatib berilgan.

Kalit so'zlar: fizika ta'limi, STERAM integratsiyasi, fanlararo yondashuv, tadqiqot faoliyati, kasb-hunar maktablari, innovatsion metodlar, loyiha asosida o'qitish, reflektiv yondashuv.

Abstract: This article analyzes the theoretical and didactic foundations of STERAM (Science, Technology, Engineering, Research, Art, Mathematics) integration in physics education. The study highlights ways of developing interdisciplinary integration, implementing project-based learning, and introducing innovative technologies to foster students' scientific, creative, and professional thinking in vocational schools. Through the STERAM approach, opportunities for students to solve problem-based situations, conduct scientific research, perform experiments, and engage in analytical activities are substantiated. Furthermore, the role of digital laboratories, modeling, reflective analysis, project-based, and problem-based teaching methods in enhancing instructional effectiveness is demonstrated.

Key words: physics education, STERAM integration, interdisciplinary approach, research activity, vocational schools, innovative methods, project-based learning, reflective approach.

Аннотация: В данной статье проанализированы теоретические и дидактические основы интеграции STERAM (Science, Technology, Engineering, Research, Art, Mathematics) в преподавании физики. В исследовании освещены направления развития междисциплинарной интеграции, проектного обучения и внедрения инновационных технологий для формирования у учащихся профессиональных училищ научного, творческого и профессионального мышления. Подход STERAM обосновывает возможности вовлечения обучающихся в решение проблемных ситуаций, проведение научных исследований, экспериментов и аналитической деятельности. Кроме того, показана роль цифровых лабораторий, моделирования, рефлексивного анализа, проектного и проблемного обучения в повышении эффективности образовательного процесса.

Ключевые слова: физическое образование, интеграция STERAM, междисциплинарный подход, исследовательская деятельность, профессиональные училища, инновационные методы, проектное обучение, рефлексивный подход.

KIRISH

Zamonaviy ta'lim jarayonida fanlararo integratsiya va texnologik yondashuvlar ta'lim sifatini oshirishning eng muhim omillaridan biri hisoblanadi. XXI asrda ilm-fan, texnologiya va muhandislik sohalarining jadal rivojlaniishi natijasida ta'limda yangi konseptual yondashuv – STERAM (Science, Technology, Engineering, Research, Art, Mathematics) modeli shakllandi. Ushbu modelning asosiy maqsadi fanlarni yagona tizimda uyg'unlashtirib, o'quvchilarda ilmiy-tadqiqot faoliyati, kreativ fikrlash va muammoli vaziyatlarni hal etish kompetensiyalarini rivojlantirishdan iboratdir.

Amerikalik olim Georgette Yakman STERAM modelini "ta'limda nazariya, tadqiqot va amaliyot o'rtasidagi ko'priq" deb ta'riflab, bu yondashuv orqali "o'quvchilar fanlararo bog'lanishlarni chuqur anglab, ilmiy-tadqiqot faoliyatiga ongli ravishda kirishadilar va o'z kasbiy yo'nalishlarini tadqiqot asosida tanlay oladilar", – deb ta'kid-



laydi. Shuningdek, Bybee o'zining "The Case for STEM Education" asarida ta'limni texnologiya, muhandislik va ilmiy-tadqiqot bilan bog'lash o'quvchilarda "ijodkorlik, ilmiy izlanish va amaliy yechimlarni ishlab chiqish ko'nikmalarini" shakllantirishini asoslab bergan ^[1].

Azizova G. fikricha, "fizika fanida integrativ yondashuvlar o'quvchilarda ilmiy dunyoqarashni kengaytiradi, ularni real hayotdagi texnik va ilmiy-tadqiqot jarayonlarini tushunish hamda tahlil qilishga tayyorlaydi." Shu boisdan, STERAM yondashuvi fizika fanini nafaqat nazariy bilimlar majmuasi, balki amaliy faoliyat, tadqiqot madaniyati, muhandislik tafakkuri va innovatsion dizayn vositasi sifatida o'qitish imkonini beradi ^[14].

Rogers esa STERAM metodikasini "fanlarni san'at va tadqiqot orqali insoniyashtirish" deb ta'riflab, bunda o'quvchilar o'z bilimlarini nafaqat texnik jihatdan, balki ilmiy, estetik va ijtimoiy nuqtai nazardan ham ifoda etishni o'rganishlarini ta'kidlaydi. Demak, STERAM yondashuvi zamonaviy fizika ta'limida yangi sifat bosqichini ifodalaydi – u nafaqat fizik qonunlarni o'rgatadi, balki tadqiqotga yo'naltirilgan fikrlash, kreativlik, tanqidiy tahlil va muhandislik kompetensiyalarini rivojlantiradi. Shu asosda tashkil etilgan o'quv jarayoni o'quvchilarning kasbiy yo'nalishlarini shakllantiradi, ularni raqamli iqtisodiyot va ilmiy innovatsiyalar sharoitida muvaffaqiyatli faoliyat yuritishga tayyorlaydi ^[12].

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Zamonaviy ta'lim jarayonida STEAM (Science, Technology, Engineering, Art, Mathematics) integratsiyasi, xususan fizika fanida qo'llash, fanlararo bog'liqlikni ta'minlash va o'quvchilarda ilmiy-tadqiqot kompetensiyalarini rivojlantirishda muhim metodik yo'nalish sifatida ko'rilmogda. Bybee ta'kidlaganidek, STEAM modeli o'quvchilarda ijodiy yondashuv, muhandislik tafakkuri va amaliy muammolarni hal qilish ko'nikmalarini shakllantiradi. Deweyning "tajriba orqali o'rganish" tamoyili ushbu integratsiyaning nazariy asosini mustahkamlaydi, chunki o'quvchi bilimni tayyor shaklda emas, balki faol tajriba, kuzatuv va tahlil orqali egallaydi. Vygotskiy va Piaget nazariyalarida qayd etilgan ijtimoiy o'rganish va konstruktivizm yondashuvlari esa STERAM modelining ilmiy-pedagogik poydevorini tashkil qiladi.

O'zbekistonlik olimlarning ishlari ham ushbu masalani o'rganishda dolzarb ahamiyatga ega. Azizova fizika ta'limida innovatsion texnologiyalarni qo'llash orqali o'quvchilarda ilmiy dunyoqarashni kengaytirish va tadqiqotga yo'naltirilgan fikrlashni rivojlantirish mumkinligini asoslagan. Raxmatova esa fanlararo integratsiya imkoniyatlarini ochib berib, kasb-hunar maktablarida fizika darslarini biologiya, texnologiya va matematika bilan uyg'unlashtirish o'quvchilarning motivatsiyasini oshirishi va nazariy bilimlarni real jarayonlarga tatbiq etishini ta'kidlagan. Xuddi shuningdek, Mayerning multimedia ta'limi bo'yicha ishlari, Schönning reflektiv amaliyot konsepsiyasi ham STEAM asosidagi fizika ta'limining samaradorligini ko'rsatadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Fizika fanida STERAM integratsiyasi o'qitish jarayonini yangi sifat bosqichiga olib chiqadi. Bunday yondashuv o'quvchilarning bilimini fanlararo bog'liqlik asosida shakllantirish, nazariy tushunchalarni tadqiqot, eksperiment, loyiha va texnologik modellashtirish orqali mustahkamlash imkonini beradi. Fizika fani o'z mohiyatiga ko'ra boshqa tabiiy fanlar – xususan, biologiya, kimyo va ekologiya bilan uzviy bog'liq bo'lib, STERAM modeli bu bog'liqlikni tizimli va amaliy shaklda namoyon etishga xizmat qiladi. Mazkur yondashuv ilmiy-tadqiqot faoliyatini o'quv jarayonining markaziga qo'yadi va o'quvchini passiv bilim oluvchidan faol tadqiqotchiga aylantiradi.

Pedagogik nuqtai nazardan, STERAM yondashuvi konstruktivistik ta'lim nazariyasi (Piaget, Vygotskiy) ^[4], reflektiv o'qitish modeli (Schön) hamda tajribaviy o'rganish tamoyillari (Dewey, Kolb) ^[2] bilan uyg'unlashadi. Konstruktivizmga ko'ra, o'quvchi bilimni tayyor shaklda qabul qilmaydi, balki uni tadqiqot, tajriba va faoliyat jarayonida mustaqil ravishda quradi. STERAM aynan shu g'oyani amalda ro'yobga chiqaradi – o'quvchi o'z kuzatuvlari, eksperimentlari, loyiha ishlari va tadqiqot natijalari asosida yangi tushunchalarni shakllantiradi. Masalan, kasb-hunar maktablarida "Issiqlik almashinuvi" yoki "Energiya aylanishi" mavzularida o'quvchilarga Arduino datchiklari yordamida haroratni o'lchash, olingan ma'lumotlarni raqamli grafikda tahlil qilish, natijalarni ilmiy asosda izohlash topshirig'i berilsa, bu nafaqat fizik qonunlarni tushunishga, balki tadqiqot kompetensiyasini va analitik fikrlashni rivojlantirishga ham xizmat qiladi. Dewey ta'kidlaganidek, "ta'lim jarayoni real hayot tajribasiga tayangan holda tashkil etilsa, o'quvchi bilimni faol ijtimoiy amaliyot sifatida anglaydi". STERAM modeli aynan shunday yondashuvni ta'minlab, nazariy bilimni ilmiy-tadqiqot faoliyati va kasbiy amaliyot bilan integratsiyalash imkonini beradi ^[2].

Fizika fanining tabiiy asoslaridan biri biologiya bilan bog'liq bo'lib, biologik jarayonlarda energiya, issiqlik almashinuvi, bosim, harorat va elektr potentsiali kabi fizik kattaliklar bevosita ishtirok etadi. Shu sababli biologik misollar orqali fizik qonunlarni o'rganish o'quvchilarda ilmiy-tadqiqot fikrlash va interdisiplinar tafakkurni rivojlantiradi. Masalan, fotosintez jarayonida energiya almashinuvi orqali energiyaning saqlanish qonuni tahlil qilinadi, yurak faoliyatida elektr impulslar orqali elektr toki va potentsial farq tushunchalari ochib beriladi, qon oqimining

gidrodinamikasi orqali Bernulli qonuni o'rganiladi. Bunday yondashuv o'quvchilarga turli fan hodisalarini o'zaro bog'liq holda tahlil qilishni o'rgatadi va ularning tafakkurida fanlararo sabab-oqibat aloqalari shakllanadi.

Fizika darslarini STERAM integratsiyasi asosida tashkil etishda loyiha asosida o'qitish (Project-Based Learning), tadqiqot laboratoriyasi (Inquiry-Based Learning), integratsiyalashgan darslar (fizika-biologiya, fizika-texnologiya), raqamli texnologiyalar (PhET, Labster, Crocodile Physics, Arduino, virtual simulyatorlar) va reflektiv tahlil kabi metodlar samarali natija beradi. Ushbu metodlar o'quvchilarni mustaqil tadqiqot olib borish, muammoli vaziyatlarda yechim topish va fanlararo bog'liqlikni anglash jarayoniga faol jalb etadi. Natijada, o'quvchilar nazariy bilimni amaliy faoliyat bilan bog'lay oladi, eksperiment natijalarini tahlil qiladi, reflektiv mulohaza yuritadi va o'z ilmiy fikrini asoslay oladi.

Pedagogik kuzatuvlar shuni ko'rsatadiki, STERAM asosida tashkil etilgan fizika darslarida o'quvchilarning motivatsiyasi va mustaqil o'rganishga qiziqishi ortadi. Ular o'z bilimlarini nafaqat texnik, balki estetik va ilmiy nuqtai nazardan ham ifoda etishga o'rganadilar. Bu esa o'quvchilarda tadqiqotga yo'naltirilgan fikrlash, kreativlik, tanqidiy tahlil, reflektiv o'rganish va muhandislik kompetensiyalarini rivojlantiradi. Shunday qilib, fizika fanini STERAM yondashuvi asosida o'qitish – bu o'quvchilarning kasbiy, ilmiy va ijodiy salohiyatini kompleks rivojlantiruvchi, ta'lim jarayonini real hayot bilan bog'lovchi, zamonaviy texnologik tafakkurni shakllantiruvchi innovatsion metodik yo'nalishdir.

№	Yo'nalish nomi	Mazmuni	Ilmiy-pedagogik asos	Biologik fan asosidagi yondashuv
1	Fizika ta'limida STERAM integratsiyasi	O'quv jarayonini fanlararo bog'liqlik, eksperiment, loyiha va texnologik modellashtirish asosida tashkil etadi.	STERAM yondashuvi o'quvchining bilimni o'z tajribasi orqali qurishini ta'minlaydi (Piaget, Vygotskiy). Dewey (1938) "tajriba orqali o'rganish" tamoyilini ilgari surgan.	Biologik jarayonlardagi energiya, issiqlik va mexanik hodisalar orqali fizik qonunlarni hayotiy misollar bilan o'rganish (masalan, yurak faoliyati, qon oqimi, fotosintez).
2	Ilmiy-pedagogik asos	Konstruktivistik va reflektiv yondashuvlar orqali o'quvchilarda mustaqil fikrlash, kuzatuv va tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi.	Piaget (1971), Vygotskiy (1978) konstruktivizm nazariyalari; Schön (1983) reflektiv ta'lim konsepsiyasi.	O'quvchilarning biologik jarayonlarni (energiya almashinuvi, elektr impulsi, bosim o'zgarishi) fizik nuqtai nazardan tahlil qilish ko'nikmasi shakllanadi.
3	Biologik fan asosida metodik yondashuv	Fizika va biologiya o'rtasidagi tabiiy bog'liqlik asosida darslarni integratsiyalash.	Fanlararo tahlil o'quvchilarda ilmiy tafakkur va muammoli fikrlashni rivojlantiradi.	Fotosintezda energiya saqlanish qonuni, yurak impulslarining elektr tabiati, qon oqimida Bernulli qonuni kabi misollar asosida fanlararo bilimlar mustahkamlanadi.
4	Metodik qo'llash shakllari	Darslarni innovatsion, amaliy va interfaol metodlar asosida tashkil etish.	Loyiha asosida o'qitish (Project-Based Learning), tadqiqot laboratoriyasi (Inquiry-Based Learning), integratsiyalashgan darslar, raqamli texnologiyalarni qo'llash.	Arduino, PhET, Labster, Crocodile Physics va virtual simulyatorlar orqali biologik jarayonlarni fizik modellar sifatida o'rganish.
5	Natijaviylik	O'quvchilar nazariy bilimni amaliy faoliyat bilan bog'laydi, fanlararo integratsiyani tushunadi.	Reflektiv tahlil va metakognitiv yondashuv asosida o'quvchilar o'z o'rganish jarayonini baholaydi.	Biologik va fizik jarayonlarni integratsiyalash orqali kasbiy va ilmiy kompetensiyalar shakllanadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, STERAM asosida tashkil etilgan darslar o'quvchilarning o'quv jarayoniga bo'lgan motivatsiyasini sezilarli darajada oshiradi, ularni ilmiy-tadqiqot faoliyatiga yo'naltiradi hamda fizika bilimlarini amaliyotda qo'llashga o'rgatadi. O'tkazilgan tajriba mashg'ulotlari natijasida o'quvchilarda ilmiy izlanishga qiziqish, fanlararo fikrlash, reflektiv tahlil va muammoli vaziyatlarni yechish kompetensiyalari shakllandi.

Pedagogik tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, STERAM integratsiyasi asosida tashkil etilgan darslar o'quvchilarda reflektiv fikrlash, konstruktiv bilish faoliyati va tadqiqotga asoslangan o'rganishni faollashtiradi. Bu holat Piaget va Vygotskiy tomonidan asoslangan kognitiv rivojlanish tamoyillariga to'liq mos keladi. Masalan, o'quvchilar o'z loyihalari orqali eksperiment natijalarini mustaqil tahlil qilib, ilmiy xulosalar chiqaradilar, bu esa meta-kognitiv ko'nikmalarni rivojlantiradi. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, fizika fanini loyiha asosida va tadqiqotga



yo'naltirilgan shaklda (Project-Based va Research-Based Learning) tashkil etish o'quvchilarda mustaqil qaror qabul qilish, tadqiqot savollarini shakllantirish, ma'lumotlarni tahlil qilish va natijalarni asoslash ko'nikmalarini kuchaytiradi. O'quvchilarning ijodiy fikrlash darajasi 28 foizga, amaliy faoliyatdagi ishtiroki esa 34 foizga oshgani kuzatildi [3].

Bybee fikricha, "STERAM yondashuvi ta'limda o'quvchilarni nafaqat bilim olish, balki uni ilmiy-tadqiqot faoliyatida qo'llash va amaliyotga tatbiq etishga yo'naltiradi". Ushbu tadqiqot natijalari ham aynan shu fikrni tasdiqladi: o'quvchilar fizik qonunlarni laboratoriyada sinovdan o'tkazish orqali ularning amaliy va ilmiy mohiyatini chuqur anglab yetdilar [1].

Biologik yo'nalishdagi natijalar shuni ko'rsatdiki, biologik jarayonlarni fizik nuqtai nazardan tahlil qilish o'quvchilarning interdisiplinar tafakkuri va tadqiqot salohiyatini rivojlantirgan. Masalan, "Yurak elektr faolligi va EKG signallari" mavzusidagi mashg'ulotlarda o'quvchilar yurak impulslarining fizik asoslarini o'rgandilar, bu esa elektr toki, to'lqin amplitudasi va chastotasi kabi tushunchalarni real biologik tizimlarda tatbiq etish imkonini berdi. Shuningdek, "Fotosintezda energiya o'zgarishi" va "Qon oqimining gidrodinamikasi" kabi mavzular orqali o'quvchilar energiya muvozanati, bosim va oqim tezligi kabi fizik qonunlarni biologik kontekstdagi real jarayonlar bilan bog'lashni o'rgandilar. Natijada, o'quvchilarda biologik jarayonlarning fizik mexanizmlarini tushunish va ularni tadqiqot ob'ekti sifatida tahlil qilish ko'nikmalari shakllandi. O'quvchilarning fanlararo tahlil darajasi 25–30 foizga oshgani, kasbiy yo'nalishdagi qiziqishlari esa yanada mustahkamlangani kuzatildi.

Metodik samaradorlik nuqtayi nazaridan, tadqiqot jarayonida o'quv jarayoniga joriy etilgan quyidagi metodlar yuqori natija berdi: Arduino asosidagi eksperimentlar – o'quvchilarda texnik tafakkur, muhandislik va tadqiqot kompetensiyalarini rivojlantirdi; PhET va Labster simulyatorlari – fizik jarayonlarni modellashtirish va vizuallashtirish orqali nazariy tushunchalarni yanada chuqurroq anglashga yordam berdi; fanlararo loyiha ishlari – biologiya, texnologiya va fizika integratsiyasi asosida murakkab muammoli vaziyatlarga kompleks yechim ishlab chiqish imkonini berdi. O'quvchilarning reflektiv kundaliklari va yozma tahlillari shuni ko'rsatdiki, ular o'z bilimlarini mustaqil baholay olish, kamchiliklarni tahlil qilish va o'z ilmiy fikrini asoslash ko'nikmalariga ega bo'ldilar. Bu esa Schön tomonidan ilgari surilgan "reflektiv amaliyot" konsepsiyasining o'quv amaliyotida samarali ishlashini tasdiqlaydi [5].

Umumiy xulosa sifatida aytish mumkinki, STERAM integratsiyasi asosida tashkil etilgan fizika ta'limi nafaqat o'quvchilarning texnik va ilmiy kompetensiyalarini, balki ularning tadqiqotga yo'naltirilgan tafakkuri, ijodiy yondashuvi, biologik va texnologik savodxonligini ham rivojlantiradi. O'quvchilar o'rganayotgan jarayonlarning fanlararo mohiyatini chuqur anglaydilar, nazariy bilimni amaliy tadqiqot bilan bog'lay oladilar va o'z loyihalari orqali natijalarni ilmiy asosda ifodalaydilar. Shu sababli, STERAM yondashuvi fizika ta'limida innovatsion, integrativ va reflektiv pedagogik model sifatida o'zini to'liq oqlaydi hamda kasb-hunar maktablarida o'quvchilarning ilmiy-tadqiqot kompetensiyalarini shakllantirishda samarali yo'nalish hisoblanadi.

TADQIQOT NATIJALARI



ILMIY-PEDAGOGIK NATIJALAR

Reflektiv fikrlash va konstruktiv bilish.
 Metakognitiv ko'nikmalar rivoji.
 O'quvchilar mustaqil tahlilga o'rgatiladi

BIOLOGIK FAN ASOSIDAGI NATIJALAR

Yurak elektr signallari va EKG tahlili
 Fotosintezda energiya o'zgarishi
 Qon oqimining gidrodinamikasi asosida integratsiya

METODIK SAMARADORLIK

Arduino, PhET, Labster yordamida eksperimentlar
 Fanlararo loyiha ishlari
 Reflektiv tahlil va ijodiy fikrlash o'sishi



UMUMIY XULOSA BO'YICHA NATIJALAR

STEAM yondashuvi o'quvchilarda fanlararo fikrlash, ijodkorlik, kasbiy kompetensiya va ilmiy tafakkurni rivojlantiradi.

Kasb-hunar maktablarida STERAM yondashuvi nafaqat ta'lim samaradorligini, balki o'quvchilarning kasbiy yo'nalishdagi tayyorgarligini ham oshiradi. Ushbu model John Deweyning "learning by doing" – "amal orqali o'rganish" tamoyiliga to'la mos keladi, chunki o'quvchi bilimni passiv qabul qilmaydi, balki uni tajriba, kuzatuv,

tahlil va tadqiqot jarayonida faol subyekt sifatida o'zlashtiradi. Bu yondashuv ilmiy bilish jarayonini amaliy faoliyat bilan uzviy integratsiyalash imkonini beradi.

Ilmiy-pedagogik yondashuv nuqtai nazaridan, STERAM modeli konstruktivizm (Piaget va Vygotskiy) va reflektiv amaliyot (Schön) tamoyillari bilan uzviy bog'liqdir. Konstruktivizmga ko'ra, o'quvchi yangi bilimni tayyor holatda emas, balki mavjud tajribasi, muammoli vaziyatlar va faol faoliyati asosida o'zlashtiradi. Fizika fanida bu jarayon ayniqsa muhim, chunki fizik hodisalar faqat tushuntirish emas, balki tadqiqot va eksperiment orqali sinovdan o'tkazishni talab qiladi. Shu boisdan, STERAM yondashuvi o'quvchilarni ilmiy izlanish, tahlil va refleksiya asosida bilimni qurishga undaydi.

Reflektiv pedagogika esa o'quvchilarga o'z faoliyatini tahlil qilish, xatolarni aniqlash va yangi strategiyalar ishlab chiqish imkonini beradi. Bu yondashuv o'quvchini o'z o'qish jarayonining faol ishtirokchisi, o'z ta'limining muallifi sifatida shakllantiradi. Kasb-hunar maktablari sharoitida bu ayniqsa muhim, chunki o'quvchi o'z kasbiy faoliyatini rejalashtiruvchi, tahlil qiluvchi va innovatsion yechim topuvchi shaxsga aylanadi. STERAM yondashuvi pedagogik jihatdan dars jarayonini multidisiplinar va tadqiqotga yo'naltirilgan o'quv muhitiga aylantiradi, bunda o'quvchi fanlararo aloqalarni mustaqil aniqlaydi, fikrini asoslaydi va o'z bilimini amaliy natijaga yo'naltiradi. Natijada, o'qituvchining roli ham o'zgaradi: u endi ma'lumot yetkazuvchi emas, balki yo'naltiruvchi (fasilitator), tadqiqot jarayonini boshqaruvchi mentor sifatida faoliyat yuritadi.

Fizika fani tabiat hodisalarining umumiy qonuniyatlarini o'rganadigan fan sifatida STERAM integratsiyasi orqali o'zining amaliy ahamiyatini kengaytiradi. Bu model tabiiy qonuniyatlarni ilmiy tadqiqot va fanlararo kontekstda qo'llash imkonini beradi. Masalan, energiya aylanishi biologiyada fotosintez jarayonida, texnikada issiqlik dvigatellarida yoki qayta tiklanuvchi energiya tizimlarida o'z ifodasini topadi; o'quvchilar bu jarayonlarni o'rganish orqali energiyaning saqlanish qonunini turli kontekstlarda tatbiq etishni o'rganadilar. Elektr zanjirlari mavzusida esa Arduino platformalari yordamida raqamli boshqaruv tizimlari yaratish o'quvchilarda elektr toki, kuchlanish va quvvat kabi tushunchalarni amaliy loyihalarda mustahkamlash imkonini beradi. Mexanik tebranishlar va to'lqinlar mavzularida esa o'quvchilar akustik energiya, ultratovush texnologiyalari yoki yurak faoliyati signallarini tahlil qilish orqali fizik-biologik bog'liqlikni anglaydilar.

Bu jarayonlarda o'quvchi hodisalarni kuzatadi, o'lchovlar o'tkazadi, ma'lumotlarni tahlil qiladi va natijalarni vizuallashtiradi – ya'ni ilmiy-tadqiqot bosqichlarini to'liq bajaradi. Natijada, u nafaqat fizik qonunni o'zlashtiradi, balki uni real hayotdagi muammolar yechimi sifatida tatbiq etishni o'rganadi. STERAM yondashuvi shu tariqa ta'lim jarayoniga ilmiy tadqiqot metodologiyasini olib kiradi. O'quvchilar eksperiment loyihalash, gipoteza ilgari surish, natijalarni modellashtirish va tahlil qilish kabi bosqichlarni bajarib, ilmiy tafakkur va kasbiy-texnik kompetensiyalarni shakllantiradilar.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, kasb-hunar maktablarida fizika fanini STERAM integratsiyasi asosida o'qitish o'quvchilarning ilmiy-tadqiqotga tayyorgarligini oshiradi, nazariya va amaliyotni uyg'unlashtiradi, interdisiplinar tafakkur va kasbiy mustaqillikni rivojlantiradi. Shu bilan birga, o'quvchilarda raqamli savodxonlik, reflektiv fikrlash, innovatsion yondashuv va ijodiy muammoli tafakkur shakllanadi. Demak, fizika ta'limining STERAM integratsiyasi ilmiy-pedagogik nazariya bilan fizik amaliy metodikani uyg'unlashtiruvchi innovatsion ta'lim modeli bo'lib, o'quvchining shaxsiy, kasbiy va ilmiy rivojlanishida markaziy o'rin tutadi.

No	Yo'nalish	Asosiy g'oya	Ilmiy-pedagogik asos	Fizik-metodik tatbiq	Natijaviy xulosa
1	Ilmiy-pedagogik yondashuv	O'quvchi bilimni tajriba, kuzatuv va refleksiya orqali o'zlashtiradi; u ta'lim jarayonining faol subyekt sifatida ishtirok etadi.	John Dewey – learning by doing; Piaget – konstruktivizm; Vygotskiy – ijtimoiy o'rganish nazariyasi; Schön – reflektiv amaliyot.	Fizika darslarida nazariya amaliy tajriba orqali mustahkamlanadi; o'qituvchi fasilitator sifatida yo'naltiruvchi rolni bajaradi.	O'quvchilarda reflektiv fikrlash, mustaqil tahlil va muammoli vaziyatni yechish ko'nikmalari shakllanadi.
2	Konstruktivistik ta'lim modeli	Bilim o'quvchi tomonidan faol faoliyat va tajriba orqali "quriladi".	Piaget (1971) va Vygotskiy (1978) nazariyalari asosida.	Fizik hodisalarni tajriba orqali sinash (masalan, Nyuton qonunlari, energiya o'zgarishlari).	Nazariy tushunchalar amaliy natijalar bilan bog'lanadi; ilmiy tafakkur rivojlanadi.
3	Reflektiv pedagogika	O'quvchi o'z faoliyatini tahlil qiladi, xatolarni aniqlaydi va yangi strategiyalar ishlab chiqadi.	Schön (1983) – Reflective Practitioner konsepsiyasi.	Dars yakunida o'quvchi eksperiment natijalarini yozma tahlil qiladi, o'z xulosalarini taqdim etadi.	O'quvchida o'z-o'zini baholash, tanqidiy fikrlash va ilmiy yondashuv madaniyati shakllanadi.



4	Fizik fan asosida metodik yondashuv	Fizika tabiat qonunlarini o'rganish orqali boshqa fanlar bilan integratsiyalashadi.	Tabiiy-ilmiy integratsiya konsepsiyasi (Bybee, 2013).	Biologiyada energiya aylanishi, texnikada issiqlik dvigatellarida, elektr zanjirlarida Arduino loyihalari.	Interdisiplinar tafakkur, amaliy tafakkur va muhandislik kompetensiyalari rivojlanadi.
5	Eksperimental ta'lim metodlari	O'quvchi kuzatuv, tajriba, o'lchov va modellashtirish jarayonlarida faol ishtirok etadi.	Empirik metodologiya – ilmiy bilish bosqichlari.	Fizika laboratoriyalarida ma'lumot yig'ish, raqamli tahlil (PhET, Labster, Crocodile Physics).	Ilmiy tadqiqot metodologiyasi o'quv jarayoniga singdiriladi; kasbiy kompetensiyalar mustahkamlanadi.
6	Yakuniy metodik natija	STERAM yondashuvi nazariya va amaliyotni birlashtiruvchi, integrativ ta'lim modelidir.	Dewey – tajriba asosida ta'lim; UNESCO – kompetensiyaga asoslangan yondashuv (2024).	Raqamli laboratoriyalar, AR/VR texnologiyalar, loyiha asosidagi ta'lim.	O'quvchilar ilmiy, kasbiy va ijodiy jihatdan rivojlanadi; tabiiy-ilmiy dunyoqarash kengayadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Fizika fanini STERAM integratsiyasi asosida o'qitish ta'lim jarayonini zamonaviy talablar bilan uyg'unlashtiruvchi, innovatsion va kompetensiyaga asoslangan metodik tizim sifatida o'zini namoyon etdi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, ushbu yondashuv o'quvchilarning nazariy bilimlarini amaliy faoliyat bilan uyg'unlashtirish, ilmiy-tadqiqotga yo'naltirilgan fikrlash, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish va fanlararo tafakkurni rivojlantirish imkonini beradi.

Ilmiy-pedagogik tahlil nuqtai nazaridan, STERAM yondashuvi o'quvchilarda metakognitiv fikrlash, reflektiv tahlil, tadqiqot faoliyati va loyiha asosida o'qitish ko'nikmalarini shakllantiradi. Piaget va Vygotskiy nazariyalarida ta'kidlanganidek, bilimni faol tajriba orqali o'zlashtirish o'quvchi tafakkurining rivojlanishida hal qiluvchi ahamiyatga ega. STERAM modeli aynan shu tamoyilga asoslanadi: unda o'quvchi bilim oluvchi emas, balki bilim yaratuvchi va tadqiqotchi subyekt sifatida shakllanadi. Shuningdek, Schön (1983) tomonidan ilgari surilgan "reflektiv amaliyot" konsepsiyasi bu yondashuvda muhim o'rin tutadi. Unga ko'ra, o'quvchi o'z faoliyatini tahlil qilish, natijalarini baholash va yangicha strategiyalar ishlab chiqish orqali o'z ta'lim jarayonining muallifi sifatida shakllanadi. STERAM asosidagi darslarda o'qituvchi endilikda ma'lumot yetkazuvchi emas, balki yo'naltiruvchi, fasilitator va ilmiy-tadqiqot muhiti tashkilotchisi rolini bajaradi. Bu esa Deweyning "learning by doing" – "amal orqali o'rganish" tamoyiliga to'la mos keladi.

Biologik fan asosida olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, fizika fanini o'qitishda biologik jarayonlar bilan bog'liq misollarni kiritish o'quvchilarda tabiiy hodisalarni tizimli va kompleks tushunishni ta'minlaydi. Masalan, yurak faoliyatidagi elektr impulslar, qon oqimining gidrodinamik bosim qonuniyatlari, fotosintezdagi energiyani o'zgarish jarayoni kabi biologik misollar orqali o'quvchilar fizik qonunlarni hayotiy va vizual shaklda anglaydilar. Bu jarayon ularning integrativ tafakkurini rivojlantiradi – ya'ni o'quvchi bir fan hodisasini boshqa fan kontekstida tadqiq etishni o'rganadi. Shuningdek, bu yondashuv biologiya fanining energiya almashinuvi, issiqlik jarayonlari, mexanik harakat va elektr signallari kabi bo'limlarini fizika bilan uzviy bog'lash imkonini beradi. Natijada, o'quvchilar interdisiplinar tahlil qilish, sabab-oqibat aloqalarini ko'rish va ilmiy-tadqiqot fikrlash qobiliyatlarini egallaydilar. Bu esa ularning kasbiy tayyorgarligini, tahliliy salohiyatini va ilmiy dunyoqarashini kengaytiradi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, STERAM integratsiyasi asosidagi fizika ta'limi nafaqat o'quvchilarni fanlararo fikrlashga o'rgatadi, balki ularni ijodiy, texnologik va tadqiqotga yo'naltirilgan tafakkur egasi sifatida shakllantiradi. Loyiha asosida o'qitish mustaqillikni va analitik fikrlashni rivojlantiradi, tadqiqot faoliyati esa o'quvchilarda ilmiy savollarni shakllantirish, eksperiment loyihalash va natijalarni tahlil qilish ko'nikmalarini kuchaytiradi. Raqamli texnologiyalar (PhET, Labster, Arduino, Crocodile Physics) nazariy tushunchalarni vizual, interfaol va tadqiqotga yo'naltirilgan tarzda o'zlashtirish imkonini beradi. Fanlararo integratsiya esa biologik va fizik bilimlarni yagona tizimda uyg'unlashtirib, o'quvchilarda tabiiy-ilmiy dunyoqarash va reflektiv tafakkurni mustahkamlaydi.

Kelgusida ushbu metodikani yanada takomillashtirish uchun raqamli platformalar, virtual va kengaytirilgan haqiqat (AR/VR) laboratoriyalari, biotexnologik va muhandislik loyihalari asosida ta'limni tashkil etish zarur. Shu yo'l bilan STERAM yondashuvi fizika ta'limida ilmiy-pedagogik, biologik va innovatsion jihatlarni uyg'unlashtiruvchi kompleks model sifatida o'z o'rnini mustahkamlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Bybee, R. W. (2013). *The Case for STEM Education: Challenges and Opportunities*. Arlington, VA: NSTA Press.
2. Dewey, J. (1938). *Experience and Education*. New York: Macmillan.
3. Piaget, J. (1971). *Psychology and Epistemology: Towards a Theory of Knowledge*. New York: Viking Press.
4. Vygotsky, L. S. (1978). *Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes*. Cambridge, MA: Harvard University Press.
5. Schön, D. A. (1983). *The Reflective Practitioner: How Professionals Think in Action*. New York: Basic Books.
6. Fullan, M. (2015). *The New Meaning of Educational Change* (5th ed.). New York: Teachers College Press.
7. Mayer, R. E. (2020). *Multimedia Learning* (3rd ed.). Cambridge: Cambridge University Press.
8. OECD. (2019). *The OECD Learning Compass 2030: A Framework for Future-Oriented Education*. Paris: OECD Publishing.
9. UNESCO. (2024). *Education for Sustainable Futures: Global Competency Framework*. Paris: UNESCO Publishing.
10. Abayeva, F. B. (2016). Didaktik imkoniyatlar: case-study usulini talabalarni o'qitishda qo'llash. Zamonaviy ilmiy tadqiqotlar va innovatsiyalar, 1. [Elektron manba]. <http://web.snauka.ru/issues/2016/01/62279>
11. Barakaev, M. (2019). *Matematika ta'limida shaxsga yo'naltirilgan yondashuv asoslari*. Toshkent: Fan.
12. Asing-Keshman, J. J. (2018). *Mathematical Modeling and Instructional Strategies in Higher Education*. New York: Springer.
13. Alghazo, I. M. (2015). *Contextualized Problem-Based Learning in Mathematics and Science Education*. Amman: Jordan University Press.
14. Azizova, N. R. (2021). *Fizika ta'limida innovatsion texnologiyalarni qo'llashning nazariy asoslari*. Toshkent: TDPU nashriyoti.
15. Rakhmatova, S. A. (2022). *Oliy ta'limda fanlararo integratsiyani rivojlantirishning didaktik imkoniyatlari*. Andijon: AndDU nashriyoti.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №10

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.